

**SOVET YILLARIDA O'ZBEKISTON AHOLISINING SANOATDAGI O'RNI,
"HUYUM" HARAKATI VA UNING NATIJALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda aholining kommunistik sanoatga jalb qilinishi, kadrlarning bilim darajasi, xotin-qizlarning sovetcha ishlab chiqarishga jalb qilinishi, ularning sanoat, ishlab chiqarishdagi va ittifoq iqtisodiyotidagi mislsiz qo'shgan hissasi o'rganiladi. Shu bilan birga, sovetlarning kommunizm qurish yo'lida respublikadagi qishloq xo'jalik yuritish va dehqon xo'jaliklarini tugatishi, xotin-qizlarning asriy va madaniy qadriyatlarini, ularning diniy e'tiqodlarini hurmat qilmaslik, uni qo'pol ravishda buzish va xalqning boy madaniy me'rosini sotsializm yo'lida qurbon qilinganligini yoritiladi. Ishlab chiqarish quvvatlarining yuqori quvvatlarda ishlashini va ularni sifatli kadrlar bilan to'ldirishdagi masalalar manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. kommunizm, kollektivlashtirish, sotsializm, mehnat sharoitlari, industrilashtirish, mahalliy kadrlar, kolxoz, ishlab chiqarish artellari, kadrlar siyosati, hujum harakati.

**РОЛЬ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В СОВЕТСКИЕ
ГОДЫ, "НАСТУПАТЕЛЬНОЕ" ДВИЖЕНИЕ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ**

Аннотация. В этой статье исследуется вовлеченность населения в коммунистическую промышленность в Узбекистане в годы советской власти, уровень образования кадров, вовлеченность женщин в советское производство, их беспрецедентный вклад в промышленность, производство и экономику союза. В то же время освещается ликвидация сельского хозяйства и крестьянских хозяйств в республике на пути построения коммунизма советами, неуважение к вековым и культурным ценностям женщин, их религиозным убеждениям, их грубое искажение и принесение в жертву богатого культурного наследия народа на пути к социализму. Вопросы функционирования производственных мощностей на высоких мощностях и пополнения их качественным персоналом анализируются на ресурсной основе.

Ключевые слова: коммунизм, коллективизация, социализм, условия труда, индустриализация, местные кадры, колхоз, производственные артели, кадровая политика, наступательное движение.

**THE ROLE OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN IN INDUSTRY DURING
THE SOVIET YEARS, THE MOVEMENT "ATTACK" AND ITS RESULTS.**

Annotation. This article explores the involvement of the population in communist industry in Uzbekistan during the years of Soviet power, the level of knowledge of personnel, the involvement of women in Soviet production, their unparalleled contribution to industry, production and the economy of the Union. At the same time, it is illuminated that the Soviets, on the way to the construction of communism, ended the agricultural and peasant farms of the Republic, did not respect the centuries-old and cultural values of women, their religious beliefs, violated it rudely and sacrificed the rich cultural norm of the people on the path of socialism. Issues in the operation of production capacities at high capacities and their replenishment with quality personnel are analyzed on the basis of sources.

Keywords. *communism, collectivization, socialism, working conditions, industrialization, local personnel, collective farm, production artels, personnel policy, attack movement.*

Kirish. O'tgan asr vatanimiz tarixi ko'plab voqealar, jaxon urushlari, kommunizm siyosati eng muhimi mustamlakachilik sitamlarini boshidan o'tkazdi. Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan hududlar o'nlab yillar davomida imperiya tarkibida qaram sifatida bo'ldi. 1917-yilda Rossiyada podsho tuzumi ag'darilgach hokimiyatga Lenin boshliq bolsheviklar keldi. Bolsheviklar yangicha boshqaruv shakli va kommunizm, sotsializm, hamma bir bo'lgan tenglik g'oyalari bilan hokimiyatga keldi. Bir necha yil o'tgach, aniqrog'i 1922-yilning 30-dekabrida sovetlarning tashabbusi bilan dunyo siyosiy foniga SSSR deb nomlanmish yangi ittifoq davlati davlati tuzildi va rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan barcha hududlar SSSR tarkibiga kiritildi. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosatda sovetlarning asosiy maqsadi ittifoq hududida bozor munosabatlarini to'liq tugatgan holda, barcha sohalar, sanoat, ishlab chiqarish va savdo-sotiq va boshqa jamiki barcha boshqaruv unsurlarini bir nuqtaga jamlash ya'ni to'liq davlat nazoratiga o'tkazishga qaratilgan edi. Hukumron kommunistik partiya iqtisodiy rivojlanish uchun ittifoq hududidagi barcha kuch va vositalarni safarbar qildi, shu jumladan xotin-qizlarni ham. Sanoatdagi ishchi kadrlarga bo'lgan talab ortidan sovetlar O'zbek xotin-qizlariga g'oyoki ozodlik, hurlik beramiz degan bahonalar ostida ularning asriy diniy qadriyatlarini oyoq osti qilishdi. Bu ishlarning ortidan ko'plab xotin-qizlar bu dunyoni erta tark etdi yoki bosim va taxqirlanishlarga uchradi.

Adabiyotlar tahlili. Sovet hokimiyati rivojlangan sotsializm qurish ishini eng avvalo yersuv islohotidan boshladi. 1925-yilning 2-dekabrida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining "Yer-suv islohoti" to'g'risida, "Yer va suvni natsionalizatsiya qilish" to'g'risidagi qarorlari qabul qilindi. Qarorning salbiy tomoni shunda ediki, bunda dehqonlardan katta yer xo'jaliklari yerni natsionalizatsiya qilish bahonasida tortib olinib boshlandi. Shu yillarning o'zida Zarafshon, Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida 254,2 ming desyatina yer jamg'armasining hosil bo'lishiga erishildi. Afsuski, tortib olingan yerlarning 70 foizdan ortig'iga kommunistlar "boylar" degan nom bergan, o'rtahol dehqonlarning yer xo'jaliklari edi. Bu siyosatni kommunistlar kollektivlashtirish, yangi ijtimoiy jamiyat siyosati deb atab unga farovon kelajak to'nini kiydirdilar. Birgina Qashqadaryo vohasi misolida ko'rilganda ushbu islohot natijasida 989 ta xo'jalik tugatildi, 12556 tanob sug'oriladigan yerlar tortib olindi. Bundan tashqari 5290 tanob lalmikor yerlar, 1001 ta ot, 1194 ho'kiz, 274 ta tuya tortib olindi [1].

1927-yilda O'zbekiston kompartiyasining III qurultoyida Akmal Ikromov ma'ruza qilib, respublika ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ishchilar 1926-yildagi 38,4 foizdan, 1927-yilga kelib 37,4 foizga kamayganligi aytib o'tadi. Respublikaning boshqaruv organlaridagi mahalliy yerli aholi vakillari salmog'i amalda ko'rinib qoldi. Yuqoridagi fikrlarning tasdig'i sifatida 1929-yilda sovetlarning III qurultoyida Fayzulla Xo'jayev nutq so'zlab, Samarqand, Buxoro va Toshkent okruglarida va Markaziy boshqaruv organlaridagi mahalliy aholining salmog'i 15 foizdan oshmasligini aytib o'tgan[2]. Bundan ko'rinadiki barcha sohalaridagi yuqori, rahbarlik lavozimlarga asosan ruslar va aholining yevropalik qismi qo'yilgan. Sotsial rivojlanishning besh yillik rejalari ishlab chiqildi. Besh yillik rejaga ko'ra respublikada sanoat sohasidagi ishchilar sonini 22,9 mingdan 62,2 ming kishiga yetkazish, shulardan mahalliy millat ishchilari sonini 10,8 mingdan 40 ming kishiga yetkazish rejalari qo'yildi[3]. Ammo qo'yilgan vazifalar to'laigicha bajarilmadi.

1925-yil 6-8-fevral kunlarida Buxoroda o'tkazilgan O'zKP(b) qurultoyida "Xotin-qizlar orasida ishlash to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur 1925-yilning o'zida Buxoroda 5 ta klub, 8 ta "qizil burchak" tashkil qilindi[4]. Ushbu yillarda ayollarning ta'lim olishlari uchun ham shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, 1925-yilda Buxoroda tashkil etilgan pedagogika bilim yurtida ta'lim olgan ayollar soni 50 nafarga yetdi. Respublikada ayollar mehnatini o'rganish komissiyalari tuzildi va ularni ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlariga jalb qilish masalalari ko'rildi. Mazkur yillarda Birgina Buxoro hududida "8-mart", "Fayzulla Xo'jayev" va "Qizil Sharq" kabi artellar ishga tushirilgan.

O'zbekistonda 1927-yil respublika xotin qizlari uchun maxsus ishlab chiqilgan "hujum" kompaniyasi ish boshladi. Ushbu yilda O'zbekiston SSR MIK huzurida "hujum" komissiyasi

tuzilib, 1927-yil "hujum" yili deb e'lon qilindi. Unga ko'ra respublika hududida ayollar o'rtasida paranjini tashlash va "ozod bo'lish" g'oyalari targ'ib qilina boshlandi. Ushbu harakatlarning faol targ'ibotchilaridan biri bo'lgan Mag'firat Mavlonova mazkur jarayonlarni shunday eslaydi, "tumanimizdagi bo'lgan yig'ilishlarning birida 127 nafar xotin-qizlar paranjilarini o'tga uloqtirdilar. O'shanda men raykomda xotin qizlar bilan ishlash bo'limining mudirasi edim", uyma-u y xonadonma-xonadon yurib xotin-qizlarni paranjini tashlashga targ'ib qilardik. Sayyot qishlog'idagi "bosmachilar" bilan to'qnashuvda dugonamdan ayrilib qoldim" degan o'z xotiralarini eslaydi[5]. Sovetlar shu tariqa turli g'oyalar va farovonlikni targ'ib qili ayollarni ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb qilib bordilar.

O'zbekiston xotin-qizlarning sanoat tarmoqlaridagi bandligi yildan-yilga oshishda davom etdi. 1935-yilda respublika sanoat tarmoqlaridagi barcha ishchilarning 35,8 foizini, shulardan to'qimachilik sohasida 48,5 foizni, tikuvchilik sohasida 86,5 foizni, oziq-ovqat sohasida 29,2 foizni, poyabzal ishlab chiqarish sohasidagi ishchilarning esa 64 foizni xotin-qizlar tashkil qildi. 1926-1939-yillarda butun sovet ittifoqi miqyosida o'tkazilgan aholini nazoratga olish ishlarining taxlillariga ko'ra respublikada 13 yil davomida ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan ishchilar orasida xotin-qizlarning ulushi bir necha barobar oshib 4,69 foizga yetdi[6].

O'zbekiston mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlarida katta natijalarga erishdi. Mahalliy aholining sanoat tarmoqlariga jalb qilishda eng avvalo ularni yetuk muhandis va malakali kadrlar qilish uchun zavod va fabrikalarning o'zida ishchilar uchun malaka oshirish va o'quv kurslari tashkil etildi. Misol tariqasida, 1929-yilning 1-oktyabrigacha bo'lgan davrda sanoat sohasidagi muhandis-texnik xodimlar soni 232 kishi bo'lgan bo'lsa, ulardan 94 tasi oliy, 95 nafari esa o'rta maxsus malumotga ega bo'lishgan, qolganlari esa amaliyotchilardan iborat edi. Bu raqamlarni oshirib borishga katta e'tibor qaratildi va 1937-yilga borib ularning soni 6 ming nafardan oshdi[7].

O'zbekistonda 1930-yillar o'rtalarida olib borilgan ijtimoiy o'zgarishlar oddiy xalq moddiy ahvoli uchun ancha yengilliklar olib kelganligi aytilgan bo'lsada, lekin bu hali farovonlik degani emasdi. Oddiy xalqning moddiy ahvoli ancha murakkab va kambag'allik darajasi yuqoriligicha qolayotgandi. Jumladan, 1933-yilda respublika ishchi va xizmatchilarning ish haqlari 1923-yildagiga qaraganda 168 foizni, 1937-yilga kelib 280 foizni tashkil qildi[8]. Bu foizlar rivojlanishdan emas, pulning qadrsizlanib borganligining natijasi edi.

Ittifoq davrida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1920-yildan ittifoq miqyosida savodsizlikni tugatish kurslari jadallik bilan tashkil qilindi. 1930-yillardan boshlab esa ushbu kurslarga kommunistik mafkura qo'shilgan holda olib borildi[9].

Tahlil va natijalar. O'tgan yigirmanchi asrda mavjud bo'lgan sovet ittifoqi yaratilish jarayonidan boshlab o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad bu kommunistik sotsial davlat qurish va uni butun dunyoga na'muna sifatida ko'rsatish edi. Ammo bu ittifoq miqyosida birdaniga amalga oshirib bo'ladigan masala emasdi. Ittifoq tarkibidagi o'n beshta respublikalar tarixiy kelib chiqishi turlicha bo'lgan, odat, qadriyatlari bir-biridan farq qiladigan hududlar edi. Har bir xalqning o'z xo'jalik yuritish usullari bor edi. Barchani bir jamoa xo'jaligida jamlash qiyin ish edi. Buni O'zbekiston misolida misol qilish mumkin, ya'ni o'zbek xotin-qizlarini sanoat tarmoqlariga jalb qilish ancha og'ir kechgan. Ushbu ishlar uchun "ozodlik" g'oyalari vaj qilinib "hujum" harakati amalga oshirildi. Bir millatning diniy qadriyatlari, urf-odatlarini tahqirlandi. Sanoatdagi asosiy yuqori rahbar lavozimlarga esa mahalliy xalq vakillari emas, rus millatiga mansub aholi qo'yildi. Amaldagi tizim esa to'liq sovetlar tomonidan qattiq nazoratda ushlandi.

Xulosa. O'zbekiston tarixidagi sotsializm yillaridagi iqtisodiy siyosatdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bu davrda sovetlar tomonidan yagona sotsial jamiyat g'oyalari aholiga singdirildi. Bozor munosabatlari to'raligicha tugatilib, davlat nazorati joriy etildi. Industrlashtirish ishlari yetarli darajada to'g'ri tashkil etilmadi. Sanoat tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlashda mahalliy aholining manfaatlari yetarli darajada inobatga olinmadi, ular ko'p hollarda quyi lavozimlarga qo'yildi. Xotin-qizlarga nisbatan ham salbiy munosabatda bo'lib, ularning asriy qadriyatlari inobatga olinmadi. Shunday bo'lsada o'zbek mehnatkashlari sanoat va ishlab

- 28 chiqarishning barcha tarmoqlarida o'zlarining fidokorliklarini namoyon qildilar. Sovet iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bor kuch va qobiliyatlarini safarbar etdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi. uchinchi kitob. Toshkent. Sharq. 2010. B. 264.
2. Хўжаев Ф. Асарлар 2-Том. Т. Fan. 1978. B. 381.
3. Ўзбекистон ССР Тарихи. III том. Тошкент. Фан. 1971.
4. Ўзбек совет энциклопедияси. Т. 1980. 14-jild.
5. Mirzaqulov B. Qorako'l tarix silsilasida. Toshkent. 2014.
6. Итоги Всесоюзный переписи населения 1959г Узбекская ССР. Москва. 1962. С. 119-120
7. Ульмасбаев Ж. Н, Слива С.А. Индустриальное развитие Узбекистана за годы советской власти. Ташкент. 1966. С. 185.
8. Плановое хозяйство. 1940. № 1. С. 90.
9. Namozov A. T. 1920-1930-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar va ularning ta'lim tizimiga ta'siri. The Lingua Spectrum Volume 3 March 2025.